

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.Xakimov, B.A.Nabiyev	
Hozirgi zamon ekologik masalalari va Markaziy Osiyoda transchegaraviy suvdan foydalanish muammosi.....	217
X.Raxmatova	
Abu Said Abulxayrning “Risolai havroiyya” asari Xoja Ahror Valiy falsafiy talqinida	225
B.Iminov	
Turkiston ziroatchilik va davlat mulki boshqarmasi “Dehqon” jurnalining tarixi	229
O‘.Ahmedova	
Davlat va jamiyat boshqaruviga ma’naviy tarbiyaning ta’siri	233
B.Xasanov	
Terrorizm va ekstremizmning jamiyatga tahdidi	236
B.Yalgashev	
Samarqand vohasida ziyorat turizmini rivojlantirish masalalari	240
J.Yusubov	
Abu Nasr Forobiy hayoti va ijodining o‘ziga xos jihatlari	245
D.Sagdullaeva	
Jamiyat modernizatsiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy tahlili	248
A.Tojaliyev	
Oliy ta’lim-yangi O‘zbekistonni barpo etishning muhim sharti	254
E.Zoyirov	
Ya’qubi Charxiy ijtimoiy-siyosiy qarashlari.....	258
U.Azimov	
Yoshlarning demokratik islohotlarga aksiologik munosabatini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlili.....	264
A.Abdumalikov	
Jamiyatda uzliksiz ta’lim tizimining shaxs ekologik madaniyati yuksalishidagi roli	267
I.Rizayev	
Sinergetika: ijtimoiy tizimni tadqiq qilishdagi muammo va imkoniyatlar.....	272
R.Mardonov	
Sharq va g‘arb ta’lim falsafalarining o‘zaro ta’siriga asoslangan madaniyatlararo muloqot.....	279
F.Yuldashev	
Abu Nasr Forobiy falsafasida aqliy bilish panteizmi.....	283
F.Usmonov	
Zamonaviy kompyuter etikasi muammolari	282
H.Muhamadiyev	
Virtuallik yangi falsafiy kategoriya sifatida	293

SIYOSAT

D.Sharipov	
Tinchlikni ta’minlashning innovatsion omillari	298
M.Habibullaev	
Korrupsiyadan xoli jamiyat barpo etishda ma’naviy – ma’rifiy islohotlarning dolzarbligi	302
M.G‘anyeva	
Xotin-qizlarda tadbirkorlik tafakkuri va uning jamiyat ijtimoiy taraqqiyotidagi o‘rni.....	305
O.Boboqulov	
Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida O‘zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlari	309
J.Sultonov	
Markaziy Osiyo chegara muammolari yechimini konstruktivizm nazariyasi yordamida tahlil qilish.....	311

**KONGONING MUSTAQILLIKKA ERISHISH JARAYONIDA O'ZBEKISTON SSR BILAN
DIPLOMATIK MUNOSABATLARI**

**ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ КОНГО С УЗБЕКСКОЙ ССР В ПРОЦЕССЕ
ОБРЕТЕНИЯ НЕЗАВИСИМОСТИ**

**DIPLOMATIC RELATIONS OF THE CONGO WITH THE UZBEK SSR IN THE PROCESS
OF ACHIEVING INDEPENDENCE**

Boboqulov Oxunjon Axmat o'g'li¹

¹**Boboqulov Oxunjon Axmat o'g'li**

– Buxoro davlat pedagogika Instituti “Ijtimoiy fanlar kafedrası” o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida rivojlangan mamlakatlarning olib borgan siyosati va O'zbekiston SSR bilan diplomatik munosabatlarida Kongo xalqiga nisbatan do'stlik, qardoshlik tuyg'ulariga amal qilib, oziq-ovqat mahsulotlari bilan yordam berganligi xususida fikr yuritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается политика развитых стран в процессе обретения Конго независимости и установления дипломатических отношений Узбекистана с ССР, следуя чувствам дружбы и братства по отношению к конголезскому народу и помогая ему продуктами питания.

Abstract

This article discusses the policy of developed countries in the process of Congo's independence and Uzbekistan's diplomatic relations with the SSR, following the feelings of friendship and brotherhood towards the Congolese people and helping them with food products.

Kalit so'zlar: Kongo, Afrika qit'asi, oziq-ovqat, Mishel Debre, Fyulber Yuli, Tombalbaye, Chad, ittifoq, oziq-ovqat, Gana.

Ключевые слова: Конго, Африканский континент, еда, Мишель Дебре, Фулбер Юли, Томбалбай, Чад, союз, еда, Гана.

Key words: Congo, African continent, food, Michel Debre, Fulber Yuli, Tombalbaye, Chad, union, food, Ghana.

KIRISH

Afrikada bir milliardga yaqin aholi istiqomat qiladi. Afrika insoniyatning beshigi sifatida ko'riladi. Aslida, taxminlarga qaraganda, qadimiy Karfagen shahri atrofida yashovchilar “afri” deb atalgan (“afar” “chang” degan ma'noni anglatadi). Karfagen rimliklar tomonidan bosib olinganidan so'ng viloyat Afrika deb atala boshlandi. Keyinchalik butun mintaqa, keyinroq esa qit'aga Afrika nomi berildi.

O'zbekiston va Afrika o'rtasidagi munosabatlar nisbatan qisqa tarixga ega, lekin muhim xalqaro voqealarni amalga oshirganlar. Ayni paytda, O'zbekiston va Afrika davlatlari o'rtasidagi aloqalar asta-sekin kengaymoqda. Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv jarayonida O'zbekistonning Afrika davlatlari bilan olib borgan aloqalari ildizlarini o'rganish, uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holati, madaniy aloqalarini o'rganish juda muhim sanaladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston SSRning Afrika davlatlari bilan aloqalari birinchi navbatda, SSSR davlati orqali bo'lib o'tgan. Shuning uchun bizga SSSR davrining xalqaro munosabatlar tarixshunosligi yordam beradi. Ushbu guruhning asarlari orasida eng mashhurlari quyidagilar: "История внешней политики СССР", второй том которого охватывает 1945-1985 годы. А.А.Громико va B.N.Ponomarevlar tomonidan tahrir qilingan kitoblarda SSSR tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari, Sovet hukumati tomonidan olib borilayotgan asosiy tashabbuslar, xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha sovet davlatining tashqi siyosat strategiyasi aks ettirilgan. SSSR tashqi siyosatining shakllanishi, Afrika bilan hamkorlik aloqalarining rivojlanishi, milliy ozodlik harakatlariga ko'maklashishi jarayoni «СССР в борьбе против колониализма и неоколониализма 1960 март 1986. Документы и материалы» kabi asarlarda mufassal bayon qilingan.

Tadqiqot ishi tarixiylik tamoyili, xronologik va qiyosiy tahlil usullariga tayanadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1950-60-yillarda Afrika qit'asi mamlakatlarining mustaqillikka erishish jarayonlari boshlandi. 1960-yilda Fransiya bosh ministri Mishel Debre va Afrikadagi Uch davlat (fransuz ittifoqiga kiradigan davlatlari) rahbarlari – Kongo Respublikasining prezidenti Fyulber Yuli, Chad respublikasining bosh ministri Tombolbaye, Markaziy Afrika Respublikasi hukumatining boshlig'i David Dako bu davlatlarning mustaqilligni tasdiqlaydigan bitimni imzoladilar. Bitimda keyingi vaqtlargacha fransuz ittifoqi umumiy organlari qaramog'ida bo'lgan funksiya va vakolatlarning fransuz ma'murlari tomonidan ana shu territoriyalar hukumatlariga topshirish ko'zda tutiladi. Bundan tashqari hamkorlik bitimi deb ataladigan bitimlarning dastlabki bandlei imzolandi. Bu bitimlar ana shu uch davlatning fransuz ittifoqidagi yangi mavqeyi va ularning Fransiya bilan yangi munosabatlarini belgilab berdi. 1960-yillarda tuzilgan hamkorlik shartnomalari Kongoning mustaqilligi e'lon qilingandan keyin imzolandi.

Rivojlangan mamlakatlarning Afrika mintaqasida olib borgan siyosati Kongoning ijtimoiy-iqtisodiy sohalariga o'zini ta'sirini ko'rsatdi. Shunday vaziyatda Sovet hukumati sovet xalqi Kongo xalqiga nisbatan do'stlik, qardoshlik tuyg'ulariga amal qilib, Kongo Respublikasiga oziq-ovqat bilan yordam berishga qaror qilganligi to'g'risida Qizil O'zbekiston gazetasi matbuotida xabar berilgan. Gazetada ma'lumot keltirilishicha, 1960-yil 19-iyul erta bilan uchta IL-18 samolyoti Moskvadan parvoz qilib, Rim-Rabot-Akkra orqali Leopoldviga uchib ketdi. Sovet hukumati tomonidan Kongo Respublikasiga yuborilayotgan oziq-ovqatlarning birinchi partiyasi ana shu samolyotlarga ortilgan. "Leninogorsk" paroxodi yaqin kunlarda bug'doy, qand-shakar va quyultirilgan sut ortib Odessadan Kongoga jo'naydi.

Gana hukumati SSSRning Akradagi elchixonisi orqali Sovet hukumatiga murojaat qilib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xavfsizlik Kengashining qaroriga muvofiq, Kongo Respublikasiga yuboriladigan Gana qo'shinlarini Kongo Respublikasiga jo'natishga yordam berishini iltimos qildi. Sovet hukumati Gana hukumatining ana shu istaklarini qo'llab, bu iltimosni qondirishga qaror berdi. Shu maqsadda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: Uchta IL-18 sovet samolyoti yordam tariqasida yuborilayotgan oziq-ovqatni Moskvadan Leopoldvilga(Kongo Respublikasi) yetkazib bergandan keyin Akkga jo'natiladi va Gana qo'shinlari Akkraga Leopoldvilga tashish uchun zarur bo'lganicha qatnaydi. Bundan tashqari , Gana qo'shinlarini tashish maqsadida Sovet hukumati Gana hukumatining ana shuni iltimosiga muvofiq,qo'shimcha ravishda ikkita IL-18 samolyotini ajratadi.Bu samolyotlar Ganaga yetib borishi bilanoq Gana qo'shinlarini Kongo Respublikasiga tashishga kirishadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning 50-60-yillarida Afrika mintaqasi mamlakatlarining jumladan, Kongoning mustaqillikka erishish jarayonida rivojlangan mamlakatlarning olib borgan siyosati va O'zbekiston SSSR bilan diplomatik munosabatlarida Kongo xalqiga nisbatan do'stlik, qardoshlik tuyg'ulariga amal qilib, oziq-ovqat mahsulotlari bilan yordam berganligi xususida ayrim fikrlar bildirib o'tilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Африка. Энциклопедический справочник. /т.2 М. 1987 — С.463, 553
2. Дебре Мишель // [Большая советская энциклопедия](#): [в 30 т.] / под ред. [А. М. Прохоров](#) — 3-е изд. — М.: [Советская энциклопедия](#), 1969.- Ст 520.
3. [Фюльбер Юлу - первый президент независимого..](#) //Отель «У погибшего историка». – ст 78.
4. [Москва в 2000-2013 гг.: Краткий статистический справочник/ Мосгорстат- М., 2014. - 74 с. ISBN 978-5-904548-11-7](#) 2019-02-20 [Wayback Machine](#) saytida. с.8.
5. Парада.В.Е . Африканинг Янги давлатлари. // Qizil O'zbekiston 1960 yil, 165 (11611) son, 16 iyul'.
6. "Constitution de la République Démocratique du Congo du 1er août 1964" [Constitution of the Democratic Republic of the Congo of 1 August 1964]. Global Legal Information Network (in French). 1964. Archived from the original on 2 August 2012. Retrieved 11 May 2012.
7. Rahimov I. SSSRning Kongo Respublikasiga yordami to'g'risida (TASS AHBOROTI). // Qizil O'zbekiston 1960 yil, 169 (11685) son, 22 iyul'.